

**IJTIMOIIY ONGDA ZAMONAVIY MAFKURAVIY TAHDIDLAR****Usmonova Shohsanam****Igamberdiyev Donyor Saidxanovich**Andijon davlat pedagogika
instituti katta o'qituvchilari**Mashrabova Sarvinoz Mo'minjon qizi****Xabibullayeva Mohigul To'lqinjon qizi**Andijon davlat pedagogika instituti
Fizika 101- guruh talabalari

Annotatsiya: Jamiyat hayotidagi mafkuraviy tahdidlarni bartaraf etish, aholi, ayniqsa, yoshlar ma'naviyatida mafkuraviy tahdidlarga qarshi immunitetni shakllantirish kun tartibidagi dolzarb vazifalardan biriga aylandi. Turli yot g'oyalar va tahdidlarning salbiy oqibatlari shiddatli va xavfli muhitda jamiyat taraqqiyotiga katta xavf tug'dirmoqda. Globallashuvning salbiy oqibatlari har soniyada ortib borayotgani barchamizdan ogohlik va hushyorlikni talab etadi. Ushbu maqolada ilmiy mutaxassislarining ilmiy qarashlari va amaliy tavsiyalari muhokama qilinadi.[1]

Kalit so'zlar: ijtimoiy ong, tahdid, globallashuv, taraqqiyot, jamiyat, zamonaviy yoshlar.

Аннотация: Устранение идеологических угроз в общественной жизни и формирование иммунитета к идеологическим угрозам в духовности населения, особенно молодежи, стало одной из актуальных задач повестки дня. Негативные последствия различных иностранных идей и угроз представляют большую опасность для развития общества в жестокой и опасной среде. Негативные последствия глобализации, которые усиливаются с каждой секундой, требуют от



всех нас осознанности и бдительности. В данной статье рассматриваются научные взгляды и практические рекомендации научных экспертов.[1]

Ключевые слова: общественное сознание, угроза, глобализация, развитие, общество, современная молодежь.

Abstract: Eliminating ideological threats in the life of society, forming immunity against ideological threats in the spirituality of the population, especially the youth, has become one of the urgent tasks on the agenda. The negative consequences of various foreign ideas and threats pose a great threat to the development of society in a tense and dangerous environment. The fact that the negative consequences of globalization are increasing every second requires awareness and vigilance from all of us. This article discusses the scientific views and practical recommendations of scientific experts.[1]

Keywords: social consciousness, threat, globalization, development, society, modern youth.

Mafkuraviy ta'sir – mafkuraviy jarayonning eng muhim strukturaviy komponentlaridan biridir. Mafkuraviy ta'sir ikki asosiy – to'g'ri, bevosita va o'zaro aloqadorlikka asoslangan bilvosita shakllar yordamida amalga oshiriladi. Mafkuraviy ta'sir samaradorligi uning obyekti va sub'yektiga bog'liq bo'ladi. Chunonchi, mafkuraviy ta'sir samaradorligi mafkuraviy ta'sir o'tkazilishi lozim bo'lgan kishilarning (obyekt) ma'lumot darajasi, madaniy saviyasiga bog'liq bo'lsa, o'z navbatida mafkuraviy ta'sir o'tkazayotgan idoralar, tarbiyaviy muassasalar, targ'ibot va tashviqotchilar (subyekt) amalga oshirayotgan mafkuraviy tadbirlar mazmuni va shakliga, mafkura xodimlarining professional mahoratiga, ularning insoniy fazilatlari, xislatlariga bog'liq bo'ladi. Mafkuraviy ta'sir o'tkazilishi lozim bo'lgan kishilarning ma'lumot darajasi, madaniy, axloqiy, xuquqiy, siyosiy saviyasi qancha baland bo'lsa, mafkuraviy ta'sir samaradorligi shuncha yuqori bo'ladi. O'z navbatida, mafkuraviy ta'sir samaradorligi uning obyekti bilan uning subyekti orasidagi o'zaro aloqadorlik mexanizmining mustahkamligiga



bog'liq. Bunday o'zaro aloqadorlik mexanizmining mazmunida bir-biriga o'rgatish, bir-biridan o'rganish, bir-biriga ustoz, bir-biriga shogird tamoyili yotmog'i darkor. Bunday holatda har bir kishi mafkuraviy ta'sir doirasiga tushadi va o'sha ta'sir asosida faoliyat ko'rsatib boradi. **Mafkuraviy tahdid** – ijtimoiy-siyosiy harakat, oqim yoki siyosiy kuch o'z manfaatini ifodalovchi mafkurasini qo'rqituv, zo'rlik yo'li bilan boshqalarga tiqishtirish. Mafkuraviy tahdid jamiyat, davlat yoki xalq, millat yoki elat taqdiriga xavf solib turgan, fojiali oqibatlarga olib kelishi mumkin bo'lgan mafkuraviy xavf-xatarlar majmuasi. Dunyoning ayrim hududlarida ana shunday harakatlar natijasida ma'naviy yo'qotishlar yuz berayotgani, millatning asriy qadriyatlari, milliy tafakkuri va turmush tarzi izdan chiqayotgani, axloq-odob, oila va jamiyat hayoti ongli yashash tarzi jiddiy xavf ostida qolayotganini kuzatish mumkin. O'zbekiston ham bunday tahdidlardan chetda qolayotgani yo'q. Mamlakatda insonparvar, demokratik jamiyat qurilayotgan hozirgi sharoitda fuqarolar ongi va faoliyatiga siyosiy ekstremizm, diniy va fundamentalizm, etnik va millatlararo ziddiyatlar, korrupsiya va jinoyatchilik, mahalliychilik va urug'-aymoqchilik, ekologik muammolar “ommaviy madaniyat” tajovuzi va hokazo. Mafkuraviy tahdid shaklida namoyon bo'layotir. Ayniqsa, o'rta asr xalifaligini qayta o'rnatish g'oyasi hamda xalqaro terrorchilik va diniy ekstremizm markazlari orqali moddiy-g'oyaviy ta'minlanayotgan aqidaparastlar mafkurasini bugun mintaqamizdagi tinchlik va barqarorlik uchun katta xavf bo'lib turibdi.

Mafkuraviy tajovuz – muayyan millat, jamiyat, davlatning tinchligi va barqarorligiga qarshi qaratilgan, siyosiy va konstitutsion tuzumni zaiflashtirish va buzishga yo'naltirilgan, fuqaro va jamiyat xavfsizligiga tahdid soluvchi g'oyaviy-nazariy qarashlar va unga asoslangan amaliyot majmui. Mafkuraviy tajovuz yovuz kuchlar va har xil markazlar tomonidan biron bir mamlakatga nisbatan ichkaridan yoki tashqaridan turib bevosita amalga oshiriladigan g'oyaviy buzg'unchilikning bir shaklidir. Ular o'z jirkanch maqsadlariga erishish uchun har qanday usullardan, odamlarning diniy, milliy hissiyotlari, hayotda mavjud bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy qiyinchiliklardan, shuningdek, zamonaviy texnika, telekommunikatsiya vositalaridan ustalik bilan foydalanishga harakat qiladi.



Bugungi kunda mafkuraviy tajovuz deganda, aholining ma'lum bir qatlamlari, ayniqsa, yoshlarning qarashlarini o'zlariga ma'qul bo'lgan yo'nalishda o'zgartirish, buzg'unchi g'oyalar, diniy ekstremizm, axloqsizlik g'oyalarini singdirish kabi g'arazli maqsadlar tushuniladi. Milliy g'oya o'zining mazmun-mohiyati bilan ana shu kabi mafkuraviy tajovuzlarga qarshi tura oladigan kishilarni tarbiyalashga xizmat qiladi. Bu borada barcha fuqarolarning ogohliligi, faolligi, ezgu g'oyalarga xizmat qilishga tayyorligi katta ahamiyat kasb etadi. [2]

Bugungi globallashuv jarayonida insoniyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi tubdan o'zgarib ketdi. Bu o'zgarishlar natijasida bir qator dolzarb ahamiyatli, ta'sir doirasi jahon hamjamiyatini qamrab olgan, bashariyatning kelajakdagi ijtimoiy taraqqiyotini belgilab berayotgan muammolar vujudga keldi. Bu muammolar insoniyatning global muammolari deb ataladi hamda ularning yechimini topish yo'lida barcha davlatlarning kuch-qudrati, imkoniyat-harakatlari jamlanishi maqsadga muvofiq.

Global muammolardan tinchlikni saqlash va quolsizlanish muammosi eng universal ahamiyatga ega, chunki bu muammo hal etilmasa, Yer yuzida hayot va sivilisatsiyaning kelajagi o'ta achinarli ahvolga kelishi muqarrar. Insoniyat tarixida, ba'zi ma'lumotlarga ko'ra, jami 14mingdan ortiq urushlar ro'y bergan va ming afsuski, harbiy mojaro va ziddiyatlar sayyoramizning turli hududlarida hanuzgacha yuz bermoqda. Lekin, global darajada bu muammo jami 70milliondan ziyod kishi qurbon bo'lgan ikkita jahon urushi bo'lib o'tgan XX asrda keskinlashadi. Hozirgi vaqtda AQSH, Rossiya Federatsiyasi, Buyuk Britaniya, Fransiya, Xitoy, Hindiston va Pokiston jahon hamjamiyatining rasman tan olingan yadroviy qurolga ega davlatlari hisoblanadi.

Dunyoning turli mintaqalarida urush va harbiy to'qnashuvlar sodirbo'lmoqda. Harbiy harakatlar va fuqarolik urushlari tufayli ayrim davlatlar gumanitar falokat vaziyatiga kelib qoldi. Bunga Suriya, Iroq, Liviya, Somali, Afg'oniston, Janubiy Sudan va boshqa davlatlarni misol tariqasida keltirilishi mumkin.

Axborotlashgan jamiyatning shiddat bilan o'zgarib borishi natijasida 'XX asrda globallashuv jarayonining tezlashishi va umumsayyoraviy siviliztsiyaning shakllana



boshlashi jahon mafkuralarining xarakterini o'zgartirib yubordi. Ularning o'rnini bosadigan qudratli mafkuraning yo'qligi, geosiyosiy maqsadlarning o'zgargani esa bu g'oyalarning salbiy ta'sirini yanada kuchaytiradi. Bunday sharoitda o'z maqsadini aniq belgilab olgan, ehtiyoj va manfaatlarini yaxshi anglab yetgan, o'z e'tiqodiga ega bo'lgan, bir so'z bilan aytganda o'z milliy g'oyasini shakllantirgan millatgina kelajagini saqlab qoladi va istiqbolini belgilaydi'. Shunday millat sifatida shakllanga o'zbek xalqi o'zining asrlar osha yashab kelayotgan milliy g'oyasi asosida yoshlar dunyoqarashini ilg'or texnologiyalar bilan boyitish, turli ta'sirlar negizida o'zlikni anglash, milliy qadriyatlarni e'zozlash va estetik madaniyatni kelajakka o'z holicha yetkazishga doimo tayyordir.

Bugungi kunga kelib globallashuv jarayonida dunyoda g'oyaviy, mafkuraviy kurash ya'ni dunyoni g'oyaviy jihatdan bo'lib olishga bo'lgan urinish kuchayib bormoqda. Albatta, bunday vaziyatda mustaqilligimizni mustahkamlash, uning barqarorligini, farovonligini, tinchligini va kelajagini ta'minlash ha birimizning yuksak burchimizdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev globallashuv sharoitida ma'naviyatga qarshi turli xurujlar haqida gapirar ekan: 'Bugungi kunda yonatrofimizda diniy ekstremizm, terrorizm, giyohvandlik, odam savdosi, noqonuniy migratsiya, ommaviy madaniyat' degan turli balo-qazolarning xavfi tobora kuchayib borayotganini hisobga oladigan bo'lsak, bu so'zlarning chuqur ma'nosi va ahamiyati yanada yaqqol bo'ladi', deb alohida ta'kidlaydi.

Insonning qalbi va ongiga jo bo'lgan milliy ma'naviy-ahloqiy negizlar uni butun umri davomida halol, pok, bilimli, xalq xizmatida bo'lishiga, Vatan ravnaqi hamda tarqqiyotiga hissa qo'shishga, o'zining ongli va erkin mushohada qiluvchi shaxs sifatida kamol topishiga muttasil ravishda undaydi.

Shu boisdan O'zbekistonning mustaqil tarqiiyoti yo'lidagi Harakatlar strategiyasini, o'zbek xalqining buyuk davlat barpo etish borasidagi maqsad-muddaolarini keng jamoatchilikka har tomonlama tushuntirish, globallashuv jarayonining asl mohiyat-mazmunini jamiyat estetik madaniyatidagi rolini aniq va Ravshan qilib olish jamiyatimiz a'zolariga yetkazib berish dolzarb vazifalardan biriga aylanadi.



Globallashuv sharoitida ma'naviy tahdidlardan xalqni, xususan o'sib kelayotgan yoshlarni asrsh, ularning qalbiga ezgulik g'oyalarini singdirish jamiyat hayotining barcha sohalarida izchil amalga oshirilmoqda. Ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida ta'lim-tarbiya, targ'ibot va tashviqotning samarali usul va vositalaridan oqilona foydalanish taqozo etilmoqda. Bugungi kunda globallashuvning ijtimoiy hayotimiz bilan bog'liqligi xususida Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev o'z fikrlarini bildirar ekan, 'Yangi tahdidlar, jumladan, 'ommaviy madaniyat' xavfi va boqimandalik kayfiyati paydo bo'layotgan, odob-axloq, qadriyatlarning yo'qolish xavfi yuzaga kelayotgan hozirgi globalshuv sharoitida bu g'oyat muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu sababli, mening fikrimcha, inson ma'naviy olami, xalqlar madaniyatini belgilaydigan manbalarni asrab-avaylash va boyitish bugundi kunda har qachongidan ham muhimdir', - deb ta'kidlaydilar.

O'zbekiston mustaqil taraqqiyot jarayonida milliy uyg'onish davrini boshdan kechirayotganligiga, madaniy merosimiz, milliy urf-odat, qadriyatlarimmizni tiklayotgan bir paytda dunyoda ezgulik va yovuzli o'rtasidagi ziddiyat kuchayib borayotganligiga guvoh bo'lyapmiz. Har qanday mafkura xalqning ma'naviy ruhiy ehtiyojlarini milliy an'analari va turmush tarzini hisobga olgan taqdirdagina yashovchan, ta'sirchan bo'ladi. Shu o'rinda globallashuv jarayonida yoshlarning yangicha estetik madaniyatini shakllantirish bo'yicha islohotlarni amalga oshirish vazifasi milliy mafkura asosida bizning diqqat markazimizda turibdi.

Bugun dunyo taraqqiyoti shu darajaga yetdiki, endi mafkuraviy kurash, ma'naviy salohiyat yetakchi o'ringa chiqadi. Insoniyat taraqqiyoti turli tahdidlar ta'siriga tushib qoldi, xavfsizlik va barqarorligiga rahna solishga, hatto uning hayotini izdan chiqarishga qaratilgan tahdidlar Kundan-kunga kuchayib bormoqda endi qurol-yaroqlar emas, balki 'fikrga qarshi faqat fikr, g'oyaga qarshi faqat g'oya' bilan kurashib olg'a boorish mumkin. Mafkuraviy kurash bir jamiyat, mamlakat ichida ham, xalqaro va davlatlararo miqyosda ham davom etmoqda. Hozirgi vqtda mafkuraviy vositalar orqali o'z ta'sir soirasini kengaytirishga intilayotgan siyosiy kuchlar va harakatlar tobora keskinlashib bormoqda.



Mazkur maqolani tahlil qilish jarayonida ilmiy bilishning mantiqiylik, tarixiylik, izchillik va obyektivlik usullaridan keng foydalanildi. Globallashuv jarayonida ma'naviy tahdidlarni bartaraf etish omillari keng yoritib berildi. Sh.M.mirziyoyevning asarlari metodologik manba bo'lib belgilandi.[3]

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. https://www.researchgate.net/publication/381288452_IJTIMOIIY_HAYOTDA_MAFKURAVIY_TAHDIDLARNI_BARTARAF_ETISH_YO'LLARI
2. <https://oyina.uz/uz/teahause/1852>
3. <https://cyberleninka.ru/article/n/globallashuv-jarayonida-mafkuraviy-tahdidlarni-bartaraf-etish-omillari/viewer>